

**XIII ASRNING BIRINCHI CHORAGI XIV ASRNING 60-YILLARIDA MOVAUNNAHR
HUDUDIDA DAVLATCHILIK MASALALARIGA MULOHAZALAR**

Abduxomitov Nizomiddin Xolbobo o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zMPU

Tarix fakulteti kechgi bo'lim

401-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, dots.

Yakobjanov J.J

Annotatsiya: *Maqolada Mo'g'il davlatining davlatchiligi haqida boradi. Davlatning boshqaruvidagi qonun va unga e'tiqod masalalari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Yasoq, Temuchin, Chingizxon yasosi, Oltin daftar, xon.*

Abstract: *The article discusses the statehood of the Mongol Empire. It explains the laws in the governance of the state and issues related to belief.*

Keywords: *Law, Temuchin, Genghis Khan's law, Golden Book, khan.*

Абстрактный: *В статье идет речь о государственности Монгольского государства. Освещаются вопросы законов в управлении государством и вопросы веры.*

Ключевые слова: *Яса, Темучин, Яса Чингисхана, Золотая Орда, хан.*

O'rta asrlar manbalarining ma'lumotlariga ko'ra, XII asr oxiri - XIII asr boshlarida mo'g'ul qabilalari va elatlarining qudratli davlatga birlashuvi jarayonlari bo'lib o'tadi. Temuchin 1186-1204 yillar davomida hokimiyat uchun kurash olib borib faqat mo'g'ullarninggina emas, ular bilan kuchli bo'lgan tatar, markit, kerayit, jaloyin, uyg'ur, qorluq kabi qabilalarni o'z qo'li ostida birlashtirib, kuchli davlatga asos soladi.

1215 yilda esa shimoliy Xitoyi poytaxt Chjundu (Pekin) shahri bilan birgalikda o'ziga tobe qilib oldi. Shu tariqa XIII asr o'rta uchinchi yillari oxiriga kelib Sharqda ikkita yirik davlat – Xorazmshoh-Anhushteginlar va Chingizxon davlatlari mavjud bo'lib, ular o'rtasida urush bo'lishi muqarrar edi. Chunonchi, 1215 yildagi Dashti Qipchoq yurg'ishda Xorazmshoh mo'g'ullarning Jo'ji boshchiligidagi harbiy kuchining duch keladi. 1215-1218-yillar oralig'ida Xorazmshoh va chingizxon o'rtasida bir necha marotaba elchilar almashinadi. Rashiddin ma'lumotlariga ko'ra Chingizxon 1218-yil Xorazmshohga yuborgan nomasida uni "o'z o'g'illar qatorida ko'rishini" ma'lum qiladi²⁴. Sharq diplomatiyasida bu qaramlikni bildirishini Sulton Muhammad yaxshi anglagan edi. Undan tashqari 1218-yil Chingizxon tomonida yuborilgan 450 kishilik elchilar guruhidagi 100 yaqin savdogarga josuslik vazifasini ham topshirgan edi²⁵. Shu bois karvon O'tror shahrida elchilar o'ldiriladi.

²⁴ Шоший А. "Мўғул босқини ёхуд Мусулмонларнинг қонли кечмиши" 38-бет.

²⁵ Саллабий «ал-Мўғул» (108-бет).

Bu voqeadan so'ng xar ikki tomon ham urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Nasaviy ma'lumotlariga ko'ra, Chingizxon bilan bo'ladigan jant munosabati bilan Urganchda chaqirilgan majlisda Sultan Muhammad o'rtaga tashlangan qator takliflarni inobatga olmadi²⁶. Chunonchi, to'ng'ich o'g'li Jaloliddinning, Xo'jand hakimi Temur Malik singari sarkardalarning barcha harbiy kuchlarni yirik shaharlarga bo'lib taqsimladi.

1219 yil kuzida Chingizxon 200 mingdan ortiq askari bilan O'rta Osiyoga yurish boshladi. Xorazmshoh Aloviddin Muhammad mo'g'ullarga qarshi urushda asosiy kuchlarni jamlab yirik jang olib borishdan qochdi. U o'ziga tobe barcha shahar va qal'alarga o'zlarini himoya qilish haqida buyruq berdi va 1221-yilgacha to'liq egallaydi.

Mo'g'ullarni birlashtirish chog'ida Temuchin kuchli harbiy tuzilmani tashkil etadi. Unga ko'ra mo'g'ul qabilalari mingliklarga bo'lingan bo'lib, u butun bir boshli harbiy okrug vazifasiga to'g'ri kelar edi. Temuchin juda intizomli, sadoqatli vao'ta jangovar harbiy tuzilmani yaratishga erishdi. O'z hokimiyatini to'liq mustahkamla bolg'ach, 1206-yilda Chingizxon nomini olgan Temuchin mo'g'ul qabilalarini birlashtirib, yarim ko'chmanchi mo'g'ul davlatini tashkil etadi.

Chingizxon tomonidan yaratilgan qonunlar to'plami "Yasoq", "Chingizxon yasosi" deb yuritilgan bo'lib, Chingizxon tomonidan mo'g'ul qabilalarining O'non daryosining boshlanish joyida chaqirilgan qurultoyida qabul qilingan qonunlar majmui, o'rta asrlar mo'g'ul hukuqi to'g'risidagi asosiy yozma yodgorlikdir. Chingizxon amriga binoan yozilib, "Oltin daftar" bilan birga xon xazinasida saqlangan. Mo'g'ullar davlatining tashkil topishi bilan Chingizxon yasosini takomillashtirish, yangi qonunlar bilan to'ldirish zarurati tug'ilgan. 1218-yilda unga muhim tuzatishlar kiritilgan. Chingizxon yasosining so'nggi tahriri 1225-yildagi qurultoyda qabul qilingan. Juvayniy (13-asr) ning yozishicha, Chingizxon yasosi uyg'ur yozuvida tumor shaklida bitilgan bo'lib, u "Yasanomayi buzurg deb nomlangan. Chingizxon yasosining parchalari musulmon tarixchilari Juvayniy, Rashiduddin, Ibn Battuta, T. Makriziy; yevropalik sayyohlar Plano Karpini, Bille Rubruk, Marko Polo (13—14-asrlar) asarlarida saqlanib qolgan. 1240-yilga oid— "Mo'g'ullarning maxfiy tarixi" va xitoy manbalarida ham yasoq haqida ba'zi ma'lumotlar mavjud.

Dastavval Chingizxon yasosi, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladigan turfa tadbirlar, muayyan gunohlar uchun beriladigan jazo choralarini o'zida mujassam qilgan. Chingizxon yasosi to'la shaklda saqlanib qolmagan, faqatgina bizgacha 33 ta parchasi va Chingizxonning davlat, harbiy va jinoyat huquqlariga oid 27 ta nutqning mazmuni bitiklarining ayrim parchalari bizgacha yetib kelgan.

Tarixiy obidalarda qayd etilishicha, Yasoqqa tortilgan jinoyatchilar aksariyat qatletilgan. Qonunga muvofiq kattaroq o'g'rilik, masalan, ot, tuya va boshqa narsalarni o'g'irlaganlik uchun o'lim jazosi, kichikroq o'g'rilik uchun, agar o'g'ri o'g'irlangan narsalarning narxidan uch barobar ortiq haq to'lay olmasa, 7 dan 700 tagacha qamchi urish bilan jazolangan. Yasoqning 29, 30, 31-bandlar bu jinoyat uchun qattiq jazolar belgilagan. "Bir otni o'g'irlagan kishi uning

²⁶ Насавий «Сийратус-султон» (11-бет).

egasiga 9 ta ot berishga majbur. Uning mulki bo'lmasa, o'rniga farzandlari olinadi"²⁷. Farzandi ham bo'lmasa qatl qilinishi lozim "Yasoq"ning 30-bandi zino, o'g'rilik va yolg'onni taqiqlaydi va bunday jinoyatlarga o'lim jazosini beriladi. Yasoq mo'yna, ba'zan chorva mol bilan to'langan. Yasoqning to'lanishi tobelikni ifodalash shakllaridan biri bo'lgan. Har bir qabila yoki urug' uchun alohida Yasoq belgilangan. Kungur tatarlari va boshqirdlar uchun Yasoq yer solig'i, Sibirning ayrim xalqlari uchun jon solig'i bo'lgan, yakutlarda chorva mol soniga qarab to'langan.

Ta'kidlash joizki, Yasoqlar asosan ko'chmanchi hayot turmush tarzini ifoda etgan. Mug'ullar tomonidan bosib olingan ko'pgina hududlar, xususan, qadimdan o'zining huquqiy an'alariga ega bo'lgan O'rta Osiyo xalqlarini yangi qonunlarga bo'ysundirish nihoyatda og'ir edi. Chunki, asrlar davomida o'troq madaniy hayot kechirgan xalqlar ko'chmanchilar an'alarini qabul qila olmas edilar. Yasoqlarda ijtimoiy-xo'jalik va madaniy hayotning ko'pgina tomonlari o'z aksini topmagan, ayrimqoidalar esa musulmon diniy huquqlari va mahalliy aholi an'analarni inkor etar edi. Shuning uchun ham Yasoq tarafdorlari va mahalliy aholi o'rtasida ko'plab to'qnashuvlar bo'lib turgan.

Mug'ullar tomonidan barpo etilgan imperiyaning davlat boshqaruvi borasida imperiya xon urug'ining xususiy mulki, degan prinsip hukmron edi. Davlat boshqaruvidagi bu o'ziga xoslikni o'z vaqtida Juvayniy shunday ta'riflanadi: "Tashqaridan qaraganda boshqaruv va mamlakat bitta shaxsga ishonib topshirilgan bo'lsa-da, aslida o'sha shaxsning barcha ota tomonidagi qarindoshlarni (erkaklar) yerlarga va umumiy boylikka birgalikda egalik qiladilar"²⁸. Mo'g'ul ulusida yasoq qonunlar tizimi Chinggizxon davridan boshlab markazlashgan davlat boshqaruvining asosiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Ushbu qonunlar tizimi harbiy intizomiy, siyosiy, iqtisodiy va axloqiy me'yorlarni o'zichiga olgan bo'lib, imperiyaning keng hududlarida yagona tartibni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Yasoq - bu an'anaviy turkiy mog'ul urf-odatlariga asoslangan, lekin Chinggizxon tomonidan qayta ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan qonunlar to'plamidir. U shunchaki qonunlar majmui emas, balki Mo'g'ul imperiyasining ijtimoiy-siyosiy hayotini boshqarishga qaratilgan muhim vosita bo'lgan. Yasoq orqali davlatda qat'iy intizom, tenglik, sadoqat va boshliq buyruqlarini so'zsiz bajarish kabi tamoyillar mustahkamlangan. Bu qonunlar orqali Chinggizxon o'z imperiyasining barqarorligini ta'minlabgina qolmay, keyingi avlod hukmdorlariga ham qat'iy boshqaruv asoslarini meros qoldirgan. Aynan yasoq qonunlari Mo'g'ul ulusining ulkan geografik hududda uzoq vaqt saqlanib qolishiga asosiy omil bo'lgan.

Xon – eng ulug' mansab bo'lgan. Eng asosiy vazifasi davlatni tashqi dushmanlardan himoya qilish vazifasi bo'lgan. Xon urush e'lon qilish, sulh tuzish va qo'shinlarning oliy qo'mondoni bo'lgan. Urug'ning boshlig'i ham bo'lgan. Xon boshqa davlatlar bilan muzokara qilish huquqiga ega bo'lib, tashqi siyosiy huqularga ega bo'lgan. Xon mamlakatda qatl etish va omon qoldirish huquqiga ega bo'lib, mamlakatning bosh qozisi vazifasini ham bajargan.

²⁷ Ибнул Асир "ал-Камил фит-Тарих"

²⁸ Жувайний "Тариху Жаҳонгуша"

Xon qonunlar chiqarishda ham jamiyatning barcha a'zolari bajarishi lozim bo'lgan farmonlar chiqarishi huquqiga ega bo'lib, jamoat tizimi va tartibini saqlash vazifasi ham bo'lgan.

Mo'g'il jamiyatida noiblar, zodagonlar va aslzodalar kabi unvonlar berish taqiqlangan. Abul Faraj va Juvayniyning "Yasoq"larni sharxlashiga ko'ra "posho taxtiga o'tirgan kishiga faqat bitta xon yoki qoon unvoni beriladi"²⁹. Uning aka-uka va qarindoshlari faqat o'zining nomlari bilan atalgan. "Yasoq"lani bu qoidalariga qat'iy amal qilingan. Faqat XIV asrning o'rtalariga kelib, Jo'ji va Chig'atoy uluslarida sulton unvoni ishlatila boshlandi.

Aynan "Yasoq" qonuni keyingi to'rt sulola davrida ham foydalaniladi va undagi qoidalarga qattiq amal qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. "Tanlangan asarlar" T., 1968.
2. G'ulomov Y.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. T. "Fan" 1959.
3. Sagdullayev A. Aminov B. Mavloov O'. Noqulov N. "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti", "Akademiya". T- 2000.
4. R. Xamadoniy "Jome ut-tavorex"
5. Eshov B. "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi" "Yangi asr avlodi" -T- 2012 B-410.

²⁹ Eshov B. "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi". "Yangi asr avlodi", -T.-: 2012-yil 237-bet